

O‘ZBEKISTON BADIYY AKADEMIYASI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

“Tasdiqlayman”

**Kamoliddin Behzod
nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti rektori**



O.R. Salixov

2025-y

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi**



“ ”

2025-y

“Kelishildi”

**O‘zbekiston Badiiy
akademiyasi**



“ ”

2025-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari**

60210600 Grafika: dastgoh va kitob grafikasi

60210600 Grafika: xattotlik va miniatyura

(kunduzgi) ta’lim yo‘nalishlari uchun

Toshkent-2025-yil

Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti O'quv uslubiy kengashining 2025-yil "11" 06 dagi "9"-son qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

- **B.Xadjimetov**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Miniatyura va kitob grafikasi kafedrası professori

Taqrizchi:

- **R.Aliboyev**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Miniatyura va kitob grafikasi kafedrası mudiri
- **N.Xusanov**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Miniatyura va kitob grafikasi kafedrası dosenti v.b

KIRISH

60210600-Grafika:dastgoh va kitob grafikasi, 60210600-Grafika: xattotlik va miniatyura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va baholash mezonlarida ushbu yo'nalishning kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kirish bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar topshiriqlarini bajarish va ularni baholash mezonlari tartibini belgilaydi.

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dastur mezonlarining murakkabligiga qo'yiladigan talablar asosan ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlarida o'qitiladigan fanlar va dasturlarida belgilangan vazifalarni qamrab oladi.

Respublikamizda badiiy ta'lim sohasida islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish, shuningdek, abituriyentlarda dizayn sohasi turlaridan kelib chiqib tasviriy san'atdagi kasbiy mahorat, amaliy ko'nikmalarning shakllanganlik va ijodiy faoliyatga moyillik darajasini aniqlashga qaratilgan.

I. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar.

60210600-Grafika: dastgoh va kitob grafikasi, 60210600-Grafika: xattotlik va miniatyura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni “Chizmatasvir” va “Kompozitsiya” fanlaridan topshiradi.

“Chizmatasvir” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko'rsatmasidan namuna 1-ilovaga muvofiq, “Kompozitsiya” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko'rsatmasidan namuna 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

“Chizmatasvir” fanidan “Odam boshi portreti” uslubiy fonda qo'yiladi. Odam boshi portretini chizish orqali uning tashqi ko'rinishga holatiga hamda portretining anatomik tuzilishiga e'tibor qilish. Bundan tashqari qomatning plastik yechimiga hamda uning harakterlarini ochib berishga amal qilish, soya-yorug' tomonlariga va ketma-ketlikka rioya etishdan iboratdir. Bundan tashqari ijodiy ishni bajarishda e'tibor bilan yuksak estetik did asosida to'liq tugallangan holatga yetkazishi talab qilinadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda **“Chizmatasvir”** fanidan amaliy ishni bajarish uchun **160 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
-----	---	------

	Chizmatasvir fani bo'yicha amaliy ish	Jami 63 ball
1.	Naturaning kompozitsion joylashuvi	7 ball
	Proporsiyalarni to'g'ri topilishi	7 ball
	Rakurs holatining topilish darajasi	6 ball
	Natura qismlarining o'zaro nisbiy joylashuvi	6 ball
	Yorug' va soyaning ishlanishidagi mahorat darajasi	6 ball
	Plastik anatomiyaning odam qomatiga mosligi	6 ball
	Tasvirning naturaga o'xshashligi va xarakterli xususiyatning topilganligi	6 ball
	Naturaning perspektiv (fazoviy) holati	6 ball
	Naturaning atrof muhit bilan bog'langanligi	6 ball
	Chizmatasvirning tugallanish darajasi	7 ball

“Kompozitsiya” fanidan abituriyent berilgan mavzu bo'yicha topshiriqni akvarel, guash, tempera, akril bo'yoqlaridan birida ishlashni erkin tanlaydi. Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi, kompozitsiya yechimini mavzu asosida topilganligi, badiiy va g'oyaviy ifodada chizmatasvir va ranglar vositasidan foydalanish darajasi, shakl va obrazlar plastik yechimini topilganligi, kompozitsion yechimi ifodali topilganligi, mavzuning mazmuni va g'oyasini ochib berishda koloritdan foydalanilishi, kompozitsiyada mazmun, g'oya – fikrning yoritilishi va tugallanish darajasi kabi masalalarini yoritib berish talab etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda **“Kompozitsiya”** fanidan berilgan mavzu uchun **160 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
1.	Kompozitsiya fani bo'yicha amaliy ish	Jami 93 ball
	Kompozitsiyaning formatga nisbatan joylashtirilganligi	5 ball
	Kompozitsiyaning mavzu jihatidan original topilganligi	5 ball
	Asarning kompozitsion g'oyaviy mazmuni	5 ball
	Kompozitsiyaning yaxlitligi	5 ball
	Badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanilganligi	5 ball
	Kompozitsion elementlarning uyg'unligi	5 ball

Asar qahramonlarining obrazlari plastik yechim orqali topilganligi	5 ball
Ranglarda tuslarni ajratish mahorati	5 ball
Issiq va sovuq ranglardan to'g'ri foydalanilganligi	5 ball
Nisbatlarning to'g'ri topilganligi	5 ball
Katta va kichik shakllarning to'g'ri joylashganligi	5 ball
Kompozitsiya yechimining ta'lim yo'nalishiga mosligi	10 ball
Kompozitsiya markazining to'g'ri topilganligi	5 ball
Kompozitsiyada ketma-ketlikning to'g'ri bajarilganligi	5 ball
Kompozitsiyada mavzuning mazmuni, ma'nosi hamda ranglar uyg'unligi to'g'ri topilganligi	5 ball
Kompozitsiyaning ishlanish mahorati	10 ball
Kompozitsiyaning tugallanish darajasi	5 ball

II. Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazish tartibi.

60210600-Grafika:dastgoh va kitob grafikasi, 60210600-Grafika: xattotlik va miniatyura ta'lim yo'nalishlarining kunduzgi ta'lim shakliga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda ajratilgan vaqt davomida Chizmatasvir fanidan qo'yilgan uslubiy fondagi topshiriqni, Kompozitsiya fanidan berilgan mavzu asosidagi vazifani bajaradi.

Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar kesimida kasbiy (ijodiy) imtihon maxsus jihozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi. Abituriyentlar maxsus tekshiruvdan o'tkazilib, belgilangan tartib qoidalarga amal qilgan holda bino va auditoriyalarga kiritiladi.

III. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha apellyatsiya tartibi.

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarning natijalariga ko'ra, natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida institut qabul komissiyasining Apellyatsiya kengashiga murojaat qilishlari mumkin.

Arizalar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bog'liq bo'lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari to'g'risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.


IV. Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev N.X. "Chizmatasvir". O'quv qollanma.T.; 2010 - 80 b.
2. Abdullayev.N., Rashidov.J. "Grafika ashyolarda ishlash" O'quv qo'llanma T.; 2018-80b.
3. Sabirov.M.M. "Mutaxassislik bo'yicha materialshunoslik". O'quv qo'llanma T.; 2018 -148 b.
4. Toshmurodov M. "Chizmatasvir". O'quv qo'llanma.T.; 2012-124 b.
5. Kalanov.A. "Grafika kompozitsiyasi". O'quv qo'llanma.T.; 2018-68b.
- Basharova.L.K. "Kompozitsiya grafiki" Uchebnoye posobiye T.; 2021-168 b.
6. Xudoyberganov R.A.. "Rangshunoslik". O'quv qo'llanma. T.; 2002-180 b.
7. Jumaniyazov Sh.R., Haitov E.X. "Chizmatasvir". O'quv qo'llanma. T.; 2018-88 b.
8. Yusupov.O. "Rangtasvirda akvarel bilan ishlash texnikava texnologiyasi". O'quv-uslubiy qo'llanma T.; 2011

Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
1-ilova

**“Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**

Vazifa: Odam boshi portret.



Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va
baholash mezoniga
2-ilova

**“Kompozitsiya” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**

Vazifa: Berilgan mavzu

